

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo`lyozma huquqida
UDK: 336.5:336 (575.1)**

MIRKASIMOV JAXONGIR MIRMUXSINOVICH


**LOGISTIK KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA
IQTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

**Iqtisodiyot fanlari bo`yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., professor M.B. Kalonov**

Toshkent-2023-yil



MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB.	LOGISTIKA TIZIMI VA UNDA BUXGALTERIYA HISOBI HAMDA IQTISODIY TAHLILNI TASHKIL ETISH ZARURIYATI.....	11
1.1-§.	O'zbekiston Respublikasida transport logistikasining rivojlanish iqtibollari.....	11
1.2-§.	Logistika korxonalarini faoliyat yo'nalishlari va ularda hisob yuritishning zaruriyati.....	24
1.3-§.	Logistik korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	41
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	49
II BOB.	LOGISTIK KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA IQTISODIY TAHLILNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI.....	52
2.1-§.	Logistik korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishning uslubiy asoslari.....	52
2.2-§.	Logistik korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish amaliyoti.....	64
2.3-§.	Logistik korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil qilish.....	74
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	84
III BOB.	LOGISTIK KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA IQTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
3.1-§.	Logistik korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish.....	87
3.2-§.	Logistik korxonalarda iqtisodiy tahlilni takomillashtirish.....	95
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	112
	XULOSA.....	114
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	121

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida tovarlarni xarid qilish va iste'mol qilish punktlari orasidagi masofa ortib borayotganligi sababli, logistika sanoati raqobatning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda, bu esa o'z navbatida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda sanoatga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda. "Sanoat AQSH va Evropa yalpi ichki mahsulotida salmoqli ulushga ega. Bundan tashqari, Osiyo global savdo markaziga aylangani va jahon savdosi hajmi 27 trillion dollardan oshgani sababli, logistika sanoati jadal o'sish tendentsiyasiga ega"¹. XXI asrda logistika sanoati mikrobiologiya va gen texnologiyasi bilan bir qatorda uchta eng muhim sohalardan biri hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy o'sishni oshirish, yashash narxini pasaytirish va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga logistika ta'sirining salmog'i oshib bormoqda.

Jahonda globallashtirish va xalqaro raqobat kuchayib borayotgan sharoitda logistik korxonalarida buxgalteriya hisobi va tahlilini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Logistika va transport kompaniyalari faoliyatining xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) muvofiqligini ta'minlash, logistika kompaniyalarida pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlar, prognozlar va daromadlar to'g'risidagi hisobotlarni tez vaqt oralig'ida tayyorlanishini tashkil etish, logistika korxonalarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tkazish, buxgalteriya hisobining eng zamonaviy dasturlaridan foydalanish, logistika korxonalarining moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda transport logistikasiga oid olib borilayotgan islohotlarning ko'lami va sifati yildan yilga oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

¹ Sevgi Sezer, Tezcan Abasiz. The impact of logistics industry on economic growth: an application in oecd countries. Sezer and Abasiz / Eurasian Journal of Social Sciences, 5(1), 2017, 11-23